

QO`ZILARNING IMMUN TIZIMIGA VAKSTINANING TA`SIRI

I.D.Sheralieva

v.f.f.d. kichik ilmiy xodim

Veterinariya ilmiy-tadqiqot instituti

Annatsiya: *Ushbu maqolada qo`zilar diplokokkoz va pasterellyozining aralash holda uchrashi, kasalliklar tufayli qonda kechadigan o`zgarishlarni aniqlash va oldini olish usullari keritilgan.*

Annatsiya: *The article describes methods of detection and prevention of mixed cases of diplococcosis and pasteurellosis in lambs, changes in blood due to diseases.*

Kalit so`zlar: *Mikrobiologiya, pasterellyoz, diplokokkoz, qon, immunoglobulin, agglyutinatsiya, vaksina, oldini olish.*

KIRISH

O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 3 martdagi PQ-4254 sonli «Chorvachilik tarmoqlarini davlat tomonidan yanada qo`llab-quvvatlashga doir qo`shimcha chora-tadbirlar to`g`risida»gi Farmoni, 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son «O`zbekiston Respublikasini yanada 2022-2026 yillarga mo`ljallangan yangi O`zbekiston taraqqiyoti strategiyasi to`g`risida»gihamda, 2020 yil 29 yanvar PQ-4576 sonli «Chorvachilik tarmog`ini davlat tomonidan qo`llab-quvvatlashging qo`shimcha chora-tadbirlari to`g`risida»gi Farmoni va 2019 yil 28 martdagi PQ-4254-sonli «O`zbekiston Respublikasi Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish davlat qo`mitasi faoliyatini tashkil etish to`g`risida»gi qarorlari hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me`yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya doirasidagi tadqiqotlar muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqot maqsad va vazifalari: Bugungi kunda pasterellyoz va diplokokkozning johon bo`yicha tarqalishi va ulardan keladigan iqtisodiy zararining yetkazilishi Respublikamiz chorvachilik fermer va dehqon xo`jaliklari oldida turgan dolzarb muammolardan biridir. «Bakterial yuqumli kasalliklardan pasterellyoz va diplokokkozning tarqalish darajasi qo`ylar orasida kasallanish 2,9 foizni shundan, aralash infeksiya bilan zararlanishi 27,8 foizni, qo`zilarning kasallanishi 3,6 foizni, aralash bakterial kasalliklar esa 31,7 foizni»¹ tashkil etadi. Pasterellyoz va diplokokkoz qishloq xo`jalik hayvonlarining infeksiyon kasalligi bo`lib, asosan yosh hayvonlar qo`zi, buzoq va cho`chqa bolalari kasallanadi. Kasallik o`tkir, o`ta o`tkir va yarim o`tkir shakllarda kechib, o`pka va ichaklarda yallig`lanishlar va limfa tizimida jarohatlanishlar bilan kechadi hamda hayvon o`z vaqtida davolanmasa nobud bo`lishiga olib keladi. Pasterellyoz asosan respirator organlarining jarohatlanishi va

¹Душук. Р.В. Колоннина Г.Ф. Болезни, вызываемые пастереллами. Пастереллезы. //Инфекционные болезни животных: справочник/ ред. Д.Ф. Осидзе. М., 1987. С.-188 - 194

yallig'lanishi bilan kechadi, diplokokkozda esa o'pka va ichak shakllarida kechib, bo'g'inlarida shish paydo bo'ladi hamda sariq eksudat to'planishi bilan xarakterlanadi. Material va metodlar: Pasterellyoz va diplokokkozning aralash infeksiya holatida tarqalish, qaysi mavsumda avj olishi, kasalliklarning kilib chiqish sabablari, kasallanish darajasi o'rganildi va tahlil qilindi. Jumladan Qashqadaryo viloyatida jami 5840 bosh qo'y-qo'zilar tekshirildi, shulardan 236 boshi aralash pasterellyoz va diplokokkoz bilan kasallangan bo'lib 4,1 %, nobud bo'lganlar esa 73 bosh ya'ni 1,25 % ni, Samarqand viloyatida jami 3144 bosh qo'y-qo'zilar tekshirildi va ulardan 239 boshi kasallangan, ya'ni 7,6 % ni, kasallikdan nobud bo'lganlari 49 bosh, ya'ni 1,6 % ni, Navoiy viloyatida 17100 bosh tekshirilgan qo'y-qo'zilardan 1625 boshi aralash infeksiyon kasallik bilan kasallangan bo'lib, 9,5 % ni, kasallik tufayli 147 bosh ya'ni, 0,8 %ni, Namangan viloyatida esa 350 bosh tekshirilgan qo'y-qo'zilardan 27 bosh hayvon kasallangan bo'lib, shundan 7,7 % va kasallik tufayli nobud bo'lgan qo'y-qo'zilar 8 bosh ya'ni, 2,2 % ni tashkil etadi.

Respublika bo'yicha jami tekshirilgan chorvachilik fermer xo'jaliklarda 26434 bosh hayvon klinik tekshirishdan o'tkazilib, shulardan 2127 boshi kasallangan ya'ni 8,1%, kasallik tufayli nobud bo'lgan hayvonlar bosh soni esa 277 ta, ya'ni 1,0 % ni tashkil etdi. Ushbu tekshirishlar natijasida kasallanib o'lgan yoki kasallangan hayvonlar patologoanatomik yorib ko'rildi va parenximatoz (o'pka, yurak, jigar, taloq, suyak ilig) organlaridan GPA, GPB hamda 5% li qon zardobli GPA va 5% li qon zardobli GPB ozuqa muhitlariga ekmalar ekilib hamda +37 °S haroratda bir sutka davomida termostatda saqlandi. Kuzatish davomida o'sgan kulturalardan surtmalar tayyorlandi va gramm usullarida bo'yaldi. Mikroskopik tekshirishlar natijasida pasterella va diplokokk qo'zg'atuvchilari ajratildi. Yuqorida nomlari qayd etilgan chorvachilik fermer ho'jaliklarida laboratoriyada mahalliy pasteurella va diplococs shtammlaridan tayyorlangan «Qo'zilarining pasterellyoz va diplokokkoziga qarshi assotsiatsiyalangan vaksina» bilan qo'zilarining teri orasiga birinchi marta 2 ml va 12-14 kundan so'ng ikkinchi marta 3 ml miqdorda emlanganda, ularni diplokokkozdan 6 oy va pasterellyozdan 12 oy davomida ishonchli himoya qilishi tadqiqotlar natijasida isbotlandi.«Qo'zilarining pasterellyoz va diplokokkoziga qarshi assotsiatsiyalangan vaksina»ning immunitet davomiyligi va optimal dozasi aniqlash bo'yicha olib borilgan tajribalar natijalaridan ushbu vaksinaning optimal dozasi 1-marta 2 ml va 2-marta 3 ml ekanligi isbotlandi.

Tadqiqotlar Veterinariya ITIning mikrobiologiya va Samarqand shahridagi «Sangzor» diagnostika markazi immunologiya laboratoriyalarida olib borildi. Tadqiqotlarda tajriba va nazorat guruhlaridagi qo'zilardan olingan qon zardobidagi immunoglobulin M, immunoglobulin G va agglyutinatsiya reaksiya tahlillari aniqlandi.

«Qo'zilar pasterellyoz va diplokokkoziga qarshi assotsiatsiyalangan vaksina»ning immun tizimdagi o'zgarishlari

Guruhlar	Hayv onlar bosh soni	Tahlil turlari		
		S reaktiv oqsil (me'yor 0,1-0,3 mg/l)	IgM (me'yor 0,4-2,3 mg/l)	IgG (me'yor 7-16 mg/l)
I tajriba Guruhil marta vaksina qilingan	3	0,39	2,4	19
		0,31	2,6	16
		0,7	2,8	18
	M±m	0,47	2,6	17,6
II tajriba guruhil marta vaksina qilingan	3	0,30	2,3	17
		0,27	2,4	14
		0,3	2,2	19
	M±m	0,29	2,3	17,7
III nazorat guruhi	3	0,12	0,7	9
		0,16	1,0	12
		0,9	0,9	11
	M±m	0,39	0,87	10,6

Ushbu olib borilgan tadqiqotlardan ko'rinib turibdiki 2 marta vaksina qilingan qo'y-qo'zilarining immunitet davomiyligi 1 marta vaksina qilingan hayvonlarning immunitet davomiyligidan yuqori ekanligi aniqlandi.

Xulosa qilib shuni takidlash lozimki respublikamizning chorvachilik fermer xo'jaliklarida pasterellyoz va diplokokkoz tez-tez uchrab, ho'jaliklarga iqtisodiy zarar yetkazmoqda. Shuning uchun chorvachilik fermer ho'jaliklariga kasalliklarni oldini olish maqsadida yuqorida nomi qayd etilgan vaksinadan foydalanish lozim, va fermaga boshqa ho'jaliklardan olib kelingan hayvonlarni, begona kishilarni kiritmaslik tadbirlarini bajarish kasalliklarni oldini olishga yordam beradi.

ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. Maxmatqulov M.A., Ibodullaev F.I., Elmurodov B.A "Qo'ylar eksperimental diplokokkozida kuzatilgan patomorfologik uzgarishlar" //UzVITI 75 yilligiga bag'ishlangan halqaro ilmiy konf ma'ruzalar matnining tuplami. Samarqand 2001, 97-98 bet.

2. Elmurodov B.A., Abdalimov S.X. "Qo'y va qo'zilar diplokokkozi" Konf ma'ruza matnining to'plami. Samarqand 2006, 25-26 bet.

3. Parmanov J.M. "Pasterellyozga qarshi immunitet masalalari bo'yicha". "Hayvonlarning o'ta xavfli kasalliklarini tarqalishi va oldini olish monitoringi" Xalqaro ilmiy konferensiya ma'ruzalari to'plami. Samarqand 2001 118-119 bet.

4. Elmurodov B.A., Abdalimov S.X. "Qo'ylar diplokokkoz kasalligining oldini olish choralari" Uchinchi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi, Samarqand 2004, 41-42 bet.

5. Chepurov K.P., Cherkasova A.V. "Diplokokkovye zabolevaniya selskoxozyaystvennykh jivotnykh» Blagoveshensk, 1954

6. Xatamova, D. M. (2023). O'RIKNING DORIVORLIK HUSUSIYATI HAQIDA. *IJODKOR O'QITUVCHI*, 3(31), 223-225.

7. Xatamova, D. M. (2023). O'RIK MAHSULOTLARINING FOYDALARI VA ISHLATILISHI. *Новости образования: исследование в XXI веке*, 1(12), 498-501.
8. Xatamova, D. M., & Nosirov, Z. (2023). KAROTIN SAQLOVCHI MAHSULOTLAR VA ULARNING FOYDALARI HAQIDA. *Scientific Impulse*, 1(10), 2111-2113.
9. Xatamova, D. M., & Nosirov, Z. M. (2023). O'RIK-DORIVOR NE'MAT. *O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI*, 2(19), 812-817